



Konstitutsiya: Davlatning huquqiy poydevori va zamonaviy islohotlar zarurati

Kambarova Shahzoda Alisherovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,

“Xalqaro huquq” fakulteti, 1-bosqich talabasi

shahzodakambarova776@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada konstitutsiyaning ahamiyati va uning davlat boshqaruvidagi o‘rni, O‘zbekiston Konstitutsiyasining o‘ziga xos jihatlari va kamchiliklari, shuningdek, xalqaro tajriba bilan solishtirish orqali uni takomillashtirish yo‘llari haqida, xususan, Norvegiya kabi ilg‘or konstitutsiyaviy davlatlarning tajribasidan qanday saboq olish mumkinligi va kelajak istiqbollari haqida tahminlarimni o‘z asoslashga harakat qilaman.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, Huquqiy tizim, Qonunchilik, Qonun ustuvorligi, Konstitutsiyaviy islohotlar.

Аннотация: В этой статье я постараюсь обосновать значение Конституции и её роль в государственном управлении, рассмотреть особенности и недостатки Конституции Узбекистана, а также пути её совершенствования через сравнение с международным опытом. В частности, я проанализирую, какие уроки можно извлечь из опыта таких передовых конституционных государств, как Норвегия, и какие перспективы открываются в будущем.

Ключевые слова: Конституция, Правовая система, Законодательство, Верховенство закона, Конституционные реформы.



Abstract: In this article, I will attempt to justify the importance of the Constitution and its role in state governance, examine the unique aspects and shortcomings of the Constitution of Uzbekistan, and explore ways to improve it by comparing it with international experience. In particular, I will analyze what lessons can be learned from the experience of advanced constitutional states such as Norway and what prospects lie ahead for the future.

Keywords: Constitution, Legal system, Legislation, Rule of law, Constitutional reforms.

Dunyoda muvaffaqiyatga erishgan davlatlarning huquqiy poydevori asosan, ularning konstitutsiyalari hisoblanadi. Buning asosiy sababi Konstitutsiya davlat tuzilishini, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini, shuningdek, hokimiyat organlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy hujjat hisoblanadi va bu hujjat har qanday qonunning asosi bo'lib, jamiyatda huquqiy barqarorlik va adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XXI chaqiriq, XXII sessiyasida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan bo'lib, yillar davomida bir necha marotaba o'zgartirishlar kiritilgan va takomillashtirilgan. So'nggi yirik konstitutsiyaviy islohot 2023-yilda amalga oshirilgan.

Nima uchun davlat taraqqiyoti va aholining tinch va farovon hayot tarzi kechirishi, davlat, jamiyat va xalq orasidagi muvozanatni saqlash uchun konstitutsiya muhim? Avvalambor, Konstitutsiyaning ahamiyati haqida aytadigan bo'lsam, Konstitutsiya nafaqat davlat hokimiyatining vakolatlari va tuzilishini belgilaydi, balki fuqarolarning huquqlari va majburiyatlarini ham tartibga soladi. Bu jarayon davomida u quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:



1. Hukumat vakolatlarini cheklash – ya’ni, Konstitutsiya davlat hokimiyatining chegaralarini belgilaydi, shuningdek, uning xalq oldidagi javobgarligini ta’minlaydi. Bu, ayniqsa, avtoritar boshqaruv shakllari rivojlanishining oldini olishda muhim hisoblanadi.
2. Huquq va erkinliklarni kafolatlash – bunda, fuqarolar nafaqat vazifa va burchlarini bajarishi, shuningdek, konstitutsiya orqali o’z huquqlari himoya qilishlari mumkin. Masalan, so’z erkinligi, shaxsiy daxlsizlik, mulk huquqi va buzilgan huquqlari ustidan sudga murojaat qilish huquqi, sud-huquqiy himoyasi asosiy konstitutsiyaviy kafolatlardandir.
3. Huquqiy barqarorlikni ta’minlash – ya’ni, Konstitutsiya davlatning barcha huquqiy tizimi uchun asosiy manba bo’lib xizmat qiladi va qonunlar tizimli hamda mantiqiy bo’lishini ta’minlaydi. Shuningdek, davlatdagi hech qaysi qonun yoki hujjat Konstitutsiyaga zid bo’lmasligi zaruriy shart hisoblanadi.
4. Demokratik boshqaruvni mustahkamlash – bunda, Konstitutsiya saylov tizimi, hukumat organlari o’rtasidagi munosabatlar va fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatlarini tartibga soladi. Umumiy aytganda shaxsning siyosiy, saylash va saylanish huquqlari qonun bilan belgilanadi va himoya qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham yuqorida keltirilgan funksiyalarni bajaradi va bir qancha o‘ziga xos jihatlari ham mavjud va ulardan birinchisi, O‘zbekistonning birinchi konstitutsiyasi mustaqillikdan so‘ng, 1992-yilda qabul qilingan bo‘lib, u mustaqil O‘zbekistonning huquqiy asosi sifatida xizmat qilgan. 2023-yilgi o‘zgartirishlardan keyin konstitutsiya yanada demokratik tamoyillarga asoslangan hujjatga aylantirildi va jarayonda quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan:

- Sotsial davlat konsepsiyasi: Konstitutsiyada O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekani belgilangan va bu davlat fuqarolarining farovonligini ta’minlashga mas’ul ekanini bildiradi.



- Inson huquqlari va erkinliklarini kengaytirish: 2023-yilgi islohotlar natijasida inson huquqlari kafolatlari mustahkamlandi, misol qilib aytadigan bo'lsam, qamoq jazosi bilan bog'liq ayrim cheklovlar yumshatildi.

- Prezidentlik hokimiyati mustahkamligi: O'zbekiston yarim-prezidentlik boshqaruv shakliga ega bo'lib, prezident davlat hokimiyatining asosiy yetakchisi hisoblanadi. Ya'ni prezident hech qaysi hokimiyatga kirmaydi, aksincha u Qonun chiqaruvchi, Ijro etuvchi va Sud hokimiyatini (Hokimiyatning bo'linishi – O'zb.Res.Konstitutsiyasi 11-modda) birlashtirib, nazorat qiladigan, davlat va xalq nomidan ish ko'radigan shaxs hisoblanadi.

Mustaqil bo'lganimizdan so'ng Konstitutsiyamiz qabul qilinganligi uchun ham, aytmoqchimanki hali qabul qilinganiga ko'p bo'lmagani va tajribamizning yetarlicha bo'lmagani uchun ham, Konstitutsiyamizda isloh qilish lozim bo'lgan muammolar ham mavjud deb hisoblayman va bulardan birinchisi;

1. Sud tizimi mustaqilligining kuchsizligi – ya'ni, hozirgi konstitutsiyada sud tizimining mustaqilligi kafolatlangan bo'lsa-da, amalda sud hokimiyati ijro hokimiyatidan mustaqil emas. Buning yechimi – sudyalarni tayinlash va ishdan olish jarayonida ijro hokimiyati ta'sirini cheklash.

2. Muxolifat va siyosiy plyuralizm muammosi:

O'zbekistonda rasmiy muxolifat partiyalari amalda mavjud emas. Konstitutsiyada muxolifatning roli va uning siyosiy maydonda erkin faoliyat yuritishi aniqroq belgilanishi kerak.

3. Mahalliy boshqaruv organlarining cheklangan vakolati:

Konstitutsiyada mahalliy hokimiyatlarning mustaqilligini kuchaytirish zarur, chunki ular hozirda ijro hokimiyatiga bo'ysunadi.

4. Atrof-muhitni himoya qilishga oid kafolatlar yetarli emas:



Norvegiya kabi davlatlarning konstitutsiyalarida ekologik barqarorlik bo'yicha aniq tamoyillar mavjud. O'zbekiston konstitutsiyasida ham ekologik huquqlar mustahkamlanishi lozim.

5. Prezidentning vakolatlari cheklanmaganligi:

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 105-113-moddalar, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari" to'g'risidagi qonunning barcha moddalari Prezident faoliyati, vakolatlari va unga beriladigan imtiyozlar haqida bo'lib, prezidentga nisbatan hatto u nafaqaga chiqsada unga va uning oilasiga beriladigan cheksiz vakolatlardan tashkil topgan. Albatta, men bunga qarshi emasman, ammo bu cheklangan bo'lishi kerak deb hisoblayman, ya'ni faoliyatidan so'ng ma'lum bir muddatga, 3 yoki 5yil davomida. Ammo bizda eks president, yangi ishlab turgan prezidentning 70% oylik maoshini olishi, u va uning butun oilasi tibbiy ko'rik, sanatoriyalar, dam olish maskanlaridan bepul foydalanishlari, shaxsiy daxlsizlik huquqiga va jinoyat qilgan taqdirda, unga nisbatan jinoiy ish ko'rishga yo'l qo'yilmaydi. Rivojlangan davlatlarda unday emas, prezident o'z faoliyati tugagandan so'ng, ma'lum bir muddat orasida u davlat tomonidan ta'minlanib, shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega bo'ladi va shu muddat tugagandan so'ng, u ham xuddi oddiy aholi singari bir xil mavqega ega bo'ladi.

Norvegiya Tajribasi: Nima o'rganishimiz mumkin?

Norvegiya dunyodagi eng demokratik davlatlardan biri bo'lib, uning konstitutsiyasi 1814-yilda qabul qilingan va hozirgacha eyarli o'zgartirishlar kiritilmagan bo'lishiga qaramay, barcha standartlarga javob berib, demokratik tamoyillarni o'z ichiga olgan. Uning O'zbekiston Konstitutsiyasidan asosiy farqlari quyidagilar:

- Monarxiya boshqaruvi, lekin kuchli parlament tizimi: Norvegiyada qirollik saqlanib qolgan bo'lsa-da, amalda parlament boshqaruvning asosiy markazi hisoblanadi. O'zbekistonda esa prezidentlik vakolatlari sezilarli darajada kuchli va bu Monarxiya bo'lmasak ham, oddiy hol hisoblanadi.



- Soʻz va matbuot erkinligi: Norvegiya konstitutsiyasi fuqarolarning hukumatni ochiq tanqid qilishiga keng imkoniyat yaratadi, bu orqali ular xalqning davlatga nisbatan fikrlari va qarashlari qanday ekanligi, xalqqa nima yoqmayotganligi va nima qilsa, qanday yoʻl tutsa xalqqa yordam berishi va uni talablarini bajarish uchun ham, ommaviy tanqidni ijobiy qabul qila oladi.

- Atrof-muhitni himoya qilish boʻyicha aniq majburiyatlar: Konstitutsiyada ekologik barqarorlik haqida maxsus boʻlim mavjud. Albatta, bizning ham konstitutsiyamizda ekologiya boʻyicha moddalar mavjud, ammo agar ularga rioya qilinmagan taqdirda ham, unga nisbatan jazo maʼmuriy va yengilroq boʻladi, balkim shu uchun ham, biz atrof-muhitga nisbatan eʼtibor bermayotganimiz, barcha ishlab chiqarish korxonalari, fabrikalar hamma-hammasi shahar markazida boʻlgani uchun ham, poytaxtimiz Toshkent haligacha butun dunyoda, 2025-yil 28-yanvar kuni Toshkent havo ifloslanishi boʻyicha dunyodagi eng yuqori koʻrsatkichga ega shaharlar orasidan birinchi oʻrinni egallagan. Agar bunga choralar koʻrilmasa va davlatning muhim muammolaridan deb qaralmasa, keyinchalik aholining sogʻligʻiga ham katta xavf uygʻotishi mumkin.

Xulosa

Yuqoridagi barcha fikrlarimni umumlashtirib, xulosa qiladigan boʻlsam, Konstitutsiya har qanday davlatning eng muhim huquqiy hujjati va u davlat tuzilishini, davlat organlari faoliyati tartibini, davlat, jamiyat va xalq munosabatlarini tartibga solib, fuqarolar huquq va erkinliklarini belgilaydi. Oʻzbekiston Konstitutsiyasi yillar davomida takomillashib kelayotgan boʻlsa-da, sud mustaqilligi, siyosiy plyuralizm va mahalliy boshqaruvning kuchaytirilishi kabi muammolar hal etilishi lozim. Shu bilan birga, rivojlangan, inson huquqlari oliy darajada boʻlgan davlatlar, masalan Norvegiya kabi davlatlarning ilgʻor tajribalaridan foydalanish, Oʻzbekiston konstitutsiyasini yanada demokratik va zamonaviy hujjatga aylantirish yoʻlida, ijobiy taʼsir oʻtkazishiga shubha yoʻq deb hisoblayman.



Foydalanilgan manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil tahriri). *LexUZ – Konstitutsiya* (<https://lex.uz/docs/264154>)
2. Norvegiya Konstitutsiyasi, 1814-yil. *Norvegiya Konstitutsiyasi – Stortinget* (<https://www.stortinget.no/en/In-English/About-the-Storting/The-Constitution/>)
3. Freedom House, “Global Democracy Index 2023”. *Freedom House – Global Democracy Report 2023* (<https://freedomhouse.org/report/freedom-world/2023>)
4. Britannica Kids, “Constitution” maqolalari. *Britannica Kids – Constitution* (<https://kids.britannica.com/students/article/constitution/273787>)